

PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Karimova Muxayyo Nazar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

E-mail: karimovamuhayyo1991@gmail.com

Ashurova Shaxnoza Faxriddinovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

E-mail: Ashurovashaxnoza@mail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek oilalariga xos bo'lgan qadriyatlar, qizlarni oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlash va ularning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek oilalari, o'spirin qizlar, oila, jamiyat, munosabat, oilaviy qadriyatlar, pozitsiya, mustaqil hayot.

Hozirgi davrda jamiyatimizda yoshlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida aholi sonining muttasil oshib borishi hisobiga nikohlanish koefisienti ham oshdi. 2019-yilda FXDYO bo'limlari orqali rasman qayd etilgan nikohlar soni 310899 mingtaga yetdi. Oilaviy ajrimlar ko'rsatkichi 2017-yil 31,9 ming , 2018-yil 32,3ming, 2019-yil 31,4ming, 2020-yil 28,2 mingni tashkil etdi.

Bu borada yurtboshimiz boshchiligidagi ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda, xususan Pezidentimiz SH.M.Mirziyoyev 2018-yil 2-fevraldagagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining asosiy vazifasi sifatida zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaning ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy me'ros va an'anaviy oilaviy qadriyatlar muammolari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni o'tkazish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va oilaviy ajralishlarning oldini olish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish- deb belgilab berganlar.

Oilalardagi hayot tarzi va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahror Vale tariqatlarida, oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasiga e’tibor, erkak bilan ayol munosabatining o‘ziga xosligi, insoniy fazilatlarning shakllanish me’yorlari haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodida (Alpomish, Kuntug‘mish, Go‘ro‘g‘li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o‘zbek xalq dostonlari) atroflicha bayon qilinganligi asoslangan.

Hozir, XXI asr boshida O‘zbekiston Respublikasi yangi davlatchiligining qaror topishida umumjahon va milliy davlatchilik taraqqiyoti qonuniyatlarini uzviy ravishda uyg‘unlashdi. Jamiyat hayotining o‘zgarishi, ma’lum jihatdan oilaga, uning a’zolariga bog‘liq bo‘lganligi bois, bu muammoni o‘rganish va tahlil etish dolzarb jarayon hisoblanadi. Har bir millat oila va u bilan bog‘liq jarayonga alohida e’tibor qaratib, oila haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazib kelmoqdalar. Oila - ijtimoiy institut sifatida uning a’zolari yoshi, kasbi, farzandlarning soni, nikoh yoshi, er-xotinlarning milliy mansubligi, hududiy jihatdan yashash joyini inobatga olgan holda tasniflandi va o‘rganiladi. Oiladagi muhitning sog‘lomligi avvalo ayolga bog‘liq bo‘lganidek, jamiyatdagi ma’naviy muhitning sog‘lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma’sul bo‘lgan onaga bog‘likdir. Bo‘lajak onalarimiz esa hozirgi kunning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning “Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo‘lsangiz, ularning qizlarini - bo‘lajak onalarini tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo‘lsangiz, ularning qizlarini - bo‘lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go‘zal axloqqa o‘rgating” degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmi, tarbiyalı hamda aqlli, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo‘lsa, oiladagi muhit ham sog‘lom va oila mustahkam, farovon bo‘ladi. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga ma’naviy psixologik tayyorgarlik holati, ularning psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir. Oilaviy muammolar yechimini o‘rganish borasida respublikamiz psixolog olimlari tomonidan bir qator diqqatga sazovor ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va oshirilmoqda.

Rus olimlari Yu.I.Semenov, Masherov, Yu.T.Timofeevlarning tadqiqotlarida oilada nizoli vaziyatlarni kelib chiqishi inson turmush tarzining butunligicha qamrab oluvchi sohalardagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Y.O.Tarasova o‘z ilmiy izlanishlarida er-xotin munosabatlaridagi o‘zgarishlar yosh xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lishini aniqlagan. K.N. Belogay er-xotin munosabatlarini barqarorlashtiruvchi omillar va nikohning psixologik vazifalari bilan bog‘liq muammolarni tahlil qiladi. K.V. Adushkina ilmiy izlanishlarida “Yosh

oilalarda nikohdan qanoatlanganlik determinantlari”ni (tasdiqlari, belgilari) tadqiq etgan.

Mamlakatimiz psixolog olimlari (G‘.B.Shoumarov, E.G‘oziev, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Z.B.Rasulova, O‘.B.Shamsiev, M.Utepberganov, N.A.Sog‘inov, S.A.Oxunjonova, T.M.Adizova, E.Usmonov, O.Shamiyeva, N.Salayeva, F.R.Ro‘ziqurov, M.Fayziyeva, H.U.Abdusamatov va boshq.) tomonidan oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi sog‘lom turmush tarzi, er-xotinning o‘zaro munosabatlari, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlariga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilganligini e’tirof etishimiz mumkin.

O‘zbek oilalarida juftiklar o‘rtasida kuzatiladigan salbiy-axloqiy xususiyatlar o‘rganilganda, er yoki xotinda uchraydigan besabrlik, o‘zgani tushunmaslik, e’tiborsizlik, qizg‘anchiqlik, jizzakilik, uquvsizlik, bilimsizlik, beparvolik, loqaydlik, qo‘pol muomala sababli yuzaga kelishini, ba’zi oilalarda betakalluflik, didsizlik, uyatsizlik, munofiqlik tufayli namoyon bo‘lishini e’tirof etdilar.

Afsuski, real hayotda salbiy sifatlarni (illatlarni) orttirgan yoshlar ham barcha fuqarolar qatorida oila quradilar. Yigit yoki qizdagagi avvaldan orttirilgan salbiy-axloqiy illatlar oila barqarorligining o‘zgarishiga, unda ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yuz berishiga va hatto oilalarning buzilib ketishiga olib kelishi kuzatildi.

Shaxslarda shakllangan salbiy-axloqiy sifatlarni ijtimoiy-psixologik asoslarini o‘rganish, ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash, rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish oilada yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ziddiyatlarning oldini olishga, oilani buzilishlardan saqlab qolib, uni barqarorligini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Nizoli vaziyatlar odatda uzoq vaqtlar davomida yetiladi, shuning uchun oqil va tajribali odamlar ularning dastlabki alomatlarini o‘z vaqtida payqab, ularga lozim darajada munosabat bildirib, ularni bartaraf qilishi yoki mumkin qadar zaiflashtirishi mumkin.

Oila jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga o‘tkazuvchi beqiyos go‘sadir. Shu bois, zamонави油 oilalarda er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning milliy psixologik istiqbollarini (andozasini) ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning milliy psixologik istiqbollarini ishlab chiqishda psixikaning muhim xususiyatlaridan biri tarixiylik va uning davriy xususiyatga ega ekanligini inobatga olish zarur. Chunki oilaning shakllanishi, er-xotin munosabatlari va undagi ishtirokchilarning faoliyati muayyan tarixiy davrlarda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda turli yo‘llar bilan bo‘lsada, oilalarda ajrashishlar sonini kamaytirish, oilalarning bir butunligi va barqarorligini saqlab qolish borasidagi

mexanizmlarni kuchaytirish, bu borada bo‘lajak onalar ya’ni qizlarimizni ongiga oilaviy qadriyatlarni singdirish, ularda oilaviy hayot borasida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish, amalga oshirilayotgan islohotlarni kuchaytirish nafaqat zamon talabi, ayni vaqtda siz-u bizning asosiy vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 81-son 01.03.2022- yildagi “Oila va xotin qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniylar ni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi:Darslik-T.:”Sharq”, 2014.272-bet.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi:Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. –T.:”Fan va texnologiya”, 2008.152-bet
4. Ahmedov B. T. (2022). Muhabbat hislari bosqichlarining jinsga bog‘liq xususiyatlari. o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(10).
5. Akhmedov B. (2022). Psychological characteristics of feelings of love. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6).
6. Karimova M. O‘smir yoshidagi qizlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari psixologik muammo sifatida. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2022
7. Karimova M. O‘smir yoshidagi qizlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini oila mustahkamligiga ta’siri muammosining nazariy tahlili МИРЗО УЛУФБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2022
8. Karimova M. Psychological Basic Of Preparing Girls For Family Life In Uzbek Families Journal of Positive School Psychology, 2022, Scopus.
9. Ashurova. Sh. F. (2022) BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O‘RNi “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali”
10. Ashurova Sh. F. SOG‘LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI “Zamonaviy ta’limda pedagogika va psixologiya fanlari. 2023.
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>
11. M.B.Imanova - Характер акцентуациясининг деструктив хулқ шаклланишига оиласинг таъсири. *Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendirio‘ № 6/7- 2022 ISSN 2181-7138*

12.M.B.Imonova – Суицидial хулқ-автор характер аксентуацияси муаммоси сифатида. Международный научный журнал “Научный импульс” № 4 ноябрь 2022 й. 735-739 б

13.M.B.Imonova “Oila tinchligi – jamiyat faravonligi asosi” Finland academic research science publisher 2023, 1148-1151 б

14Ashurova.Sh.F. “ A healthy Lifestyle in Uzbekistan families from the point of view of islm religion” Emergent: Journal of education discoveries and lifelong learning (EJEDL) 2022-yil 56 б